



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Nilyufar Umarova

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

PEDAGOGIK KOMPETENTLIK – O'QITUVCHI KASBIY STANDARTINING MUHIM TARKIBIY QISMI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik kompetentlik - o'qituvchining kasbiy standarti tarkibida muhim omillardan biri ekanligi, ta'lim islohotlari jarayonida uni rivojlantirish bilan bog'liq muhim vazifalar to'g'risida mushohada yuritiladi.

Kalit so'zlar: standard, kasbiy standart, o'qituvchining kasbiy standarti, kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetensiya.

Hozirgi kunda mustaqil davlatimizning yagona maqsadi insonparvar, demokratik-huquqiy jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarilish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallash bo'lib, ushbu maqsadlarga erishishda ijobiy natijalarga ega bo'lish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda teran tafakkurni hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir.



Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz [1] deb ta'kidladilar.

Demak, zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'limning sifati va mazmunini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilandi [2].

Bugungi kun o'quvchi-yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikr, keng dunyoqarash egalari sifatida shakllantirishda o'qituvchilar o'ziga xos kasbiy standart egasi bo'ishini taqazo etmoqda. O'qituvchining kasbiy standarti mohiyatini anglab yetish uchun avvalo, standart, va kasbiy standart tushunchalarining mazmunini bilish maqsadga muvofiqdir.

"Standart (ingilizcha standard — me'yor, namuna, o'lcham) — keng ma'noda — boshqa ob'yektlarni taqqoslash uchun dastlabki ob'yekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model; standartlanadigan ob'yektga qo'yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me'yoriy-texnik hujjat. Standart inson faoliyatining barcha sohalari: fan, texnika, sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, qurilish, transport va boshqalarga taalluqli"[3] tushuncha sifatida ta'riflanadi.

kasbiy standart esa — malaka va bilimning darajasiga, mehnatning mazmuniga, sifatiga va shart-sharoitlariga doir talablarni belgilaydigan, asosiy mehnat vazifalari tavsifini va ularni bajarish shartlarini o'z ichiga olgan standart [4] deb izohlanadi. Boshqacha aytganda, kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan turini (masalan, o'qituvchilik kasbini) amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malaka tavsifini ifodalaydi.

Yuqorida berilgan ta'riflarga asoslanib, o'qituvchining kasbiy standarti deganda, uning malaka va bilimlari darajasi, mahorati, ko'nikmalari, mehnatining mazmuni, sifati va shart-sharoitlarga doir belgilangan talablar, asosiy mehnat vazifalari tavsifi shuningdek, ularni bajarish shartlarini o'z ichiga olgan standart tushuniladi. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchining kasbiga qo'yiladigan talablarga erishishning yuqori darajasi yoki faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir etadigan me'yorlarni o'zida mujassam etuvchi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan qoida va tamoyillarni ifodalovchi na'munadir.

O'qituvchining kasbiy standarti tarkibida pedagogik kompetentlik muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda – mamlakatimizda uzluksiz ta'lim islohoti jadallik bilan olib borilayotgan paytda pedagogik kompetentlik muhim omil sifatida qaralmoqda. Qolaversa 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasi yaratish" vazifasi belgilandi[5].



Kompetentli pedagog – u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tugʻiladi. Shu nuqtai nazardan “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.

Har qanday oʻqituvchi ham “kompetentlik” nimani anglatishini va u “kompetensiya”dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. “Kompetentlik” tushunchasi pedagogning maʼlumoti, koʻnikmasi, qobiliyati va tajribasini oʻz ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning maʼlum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama oʻxshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatadi, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat Taʼlim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati sifatida taʼriflangan[6].

Funksiyalarni toʻgʻri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy oʻsishi uchun qaysi yoʻnalishda harakatlanishini bilishi kerak.

Kompetentlik nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qoʻllash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli maʼlumotga ega boʻlish. Bundan tashqari, pedagogning oʻz kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida oʻz rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bogʻliq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa koʻnikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogic kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati boʻlib, vaqtni boshqarish, shaxsiy oʻsishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega boʻlgan ishchilarcharchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetensiyaning har bir turi koʻnikmalar, bilimlar, koʻnikmalar toʻplamini oʻz ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon boʻladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari koʻrsatkichlariga eʼtibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.



Kompetentlik qanday shakllanadi? O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Maxsus ma'lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo'lish.
5. O'z sohasida professionallikka erishish.
6. Tajriba to'plash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq. Pedagoglarning kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tizimdir:

- pedagoglarning malaka darajasi - baholash uchun etalonga mos mezonlar ishlatiladi;
- mehnat unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta'lim yo'nalishiga muvofiqligi;
- qo'shimcha ko'nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish istagi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz kechadigan jarayon bo'lib, birinchidan, u avvalo oliy ta'lim muassasasida boshlanadi, ikkinchidan, ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko'nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Konstitutsiyaning qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi.
2. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". Respublikasi Prezidentining **Farmoni**. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2019 yil 29 aprel. 06/19/5712/3034-son.
3. "Vikipediya" lug'ati.
4. "Aholi bandligi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 yil, 03/20/642/1396-son.
5. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli Farmoni.



6. Umumiy o'рта va o'рта maxsus, kasb-qunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'qrisida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.